

Buxoro viloyatida 2021- yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

Raqamlar:




**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar -
7938,7 mlrd. so'm**

**O'sish sur'ati -
150,1%**

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **7938,7** mlrd. so'mni yoki o'tgan yilga ga nisbatan **150,1 %** ni tashkil etdi. Moliyalashtirishning manbalari bo'yicha tahlil qilinganda, joriy davrda o'zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi – **4264,2** mlrd. so'm yoki **53,7 %** i xorijiy investitsiyalari va kreditlari, **2765,0** mlrd. so'm, yoki **34,8 %** i korxonalar va aholining o'z mablag'lari hisobiga to'g'ri keladi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar taqsimlanishi

2021- yil yanvar-iyun oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan - **1062,8** mlrd. so'm, jami investitsiyalardagi ulushi **13,4 %** ni, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan esa **6875,9** mlrd. so'm, jami investitsiyalardagi ulushi **86,6 %** ni tashkil qildi.



■ markazlashgan ■ markazlashmagan

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi


	Jami investitsiyalar, mlrd. so'mda	Shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (jamiga nisbatan, % da)					
		Respublika byudjeti	Korxona va tashkilot mablag'lari	Aholi mablag'lari	Bank kreditlari va boshqa tashkilotlar-ning qarz mablag`lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
Jami viloyat	7938,7	3,5	21,0	13,8	6,7	53,7	1,3
Buxoro sh	1769,0	6,5	21,0	7,5	9,5	49,8	5,7
Kogon sh	185,0	2,5	7,2	6,1	6,3	77,9	
Olot	516,7	1,8	5,9	20,5	3,5	68,3	
Buxoro	382,7	4,6	11,7	26,2	17,5	40,0	
Vobkent	251,1	0,9	15,2	23,5	15,4	45,0	
G'ijduvon	300,5	0,8	8,9	58,5	13,7	18,1	
Kogon	344,7	3,0	13,0	26,4	15,9	41,7	
Qorako'l	163,1	6,4	5,3	51,3	6,3	30,7	
Qorovulbozor	449,7	0,7	30,2	1,0	2,5	65,6	
Peshku	128,6	0,1	9,2	64,2	8,4	18,1	
Romitan	3063,6	2,7	28,4	4,0	2,2	62,7	
Jondor	261,3	2,5	23,8	26,5	10,0	37,2	
Shofirkon	122,7	9,0	6,5	46,7	6,2	31,6	

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari
bo`yicha tarkibi**

	Mird. so`m	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, %da
Jami	7938,7	151,1	100
Markazlashgan:	1062,8	78,4	13,4
Respublika byudjeti	275,5	101,2	3,5
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	102,2	-	1,3
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo'lган chet el kreditlari	685,1	65,3	8,6
Markazlashmagan:	6875,9	174,7	86,6
Korxona mablag'i	1668,5	2,0 м.	21,0
Aholi mablag'i	1096,5	101,8	13,8
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	3579,0	2,2 м.	45,1
Bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarz mablag`lari	531,9	133,0	6,7


Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumi hajmiga nisbatan moliyalashtirish manbalarining tarkibi, % da

Markazlashgan




Markazlashmagan

- To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar
- Korxonalarining o'z mablag'lari
- Aholi mablag'lari
- Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari




Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi (jamiga nisbatan, % da)



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish-montaj ishlari bo'yicha **3326,2** mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning **51,4** % ni tashkil etdi, mashina, uskunalar va jihozlarni xarid qilishga **4078,4** mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi **41,9** % i) va boshqa xarajatlarga **534,1** mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi **6,7** % i) investitsiyalar o'zlashtirilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar jamiga nisbatan ulushi, % da

- Tog-kon sanoati
- Uy-joy qurilish
- Tashish va saqlash
- Suv ta'minoti
- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish
- Qishloq, urmon va baliq xo'jaligi
- Qurilish
- Ta'lifm
- Ulgurji va chakana savdo,motorli transport vositalarni tamirlash
- Boshqa faoliyat turlari




Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida yuqoridaagi diagrammada ko'rsatib o'tilganidek, tog'-kon sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan **2471,6** mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning **31,1** % i o'zlashtirilgan.

Shuningdek asosiy kapitalga investitsiyalarning eng ko'p investitsiya hajmlari ishlab chiqaradigan sanoatiga **21,8** % (yoki **1726,9** mlrd. so'm), qishloq, urmon va baliq xo'jaligiga **11,9** % (yoki **946,4** mlrd. so'm), uy-joy qurilishiga **10,9** % (yoki **866,4** mlrd. so'm), tashish va saqlashga **7,2** % (yoki **574,0** mlrd. so'm), qurilishga **2,8** % (yoki **221,2** mlrd. so'm), suv ta'minotiga **2,5** % (yoki **202,1** mlrd. so'm), ulgurji va chakana savdoga **2,2** % (yoki **174,1** mlrd. so'm), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga **1,8** % (yoki **140,8** mlrd. so'm), ta'limga **1,5** % (yoki **118,1** mlrd. so'm), boshqa faoliyat turlariga **6,3** % (yoki **497,1** mlrd. so'm) to'g'ri keladi.


Turar-joy qurilishiga investitsiyalar aholini namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishi bo'yicha davlat dasturlarining amalga oshirilishi hamda aholi tomonidan yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi hajmlari bilan bog'liq.

Xorijiy investitsiya va kreditlar jamiga nisbatan ulushi, % da



2021- yil yanvar-iyun oylarida **4264,2** mlrd. so'm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning umumiy hajmining **53,7** % i xorijiy investitsiya va kreditlari hisobidan amalga oshirilgan. O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati **159,9** % ni tashkil qilgan. Shundan xorijiy investitsiyalarning hajmi **977,6** mlrd. so'mni, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi **22,9** % ni tashkil qildi. Xorijiy kreditlarning hajmi **3286,6** mlrd. so'mni, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi **77,1** % ni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiyalar va kreditlarning jamiga nisbatan ulushi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Tog'-kon sanoati
- Suv ta'minoti
- Ishlab chiqaradigan sanoat

Xorijiy investitsiya va kreditlarning asosiy hajmi tog'-kon sanoatiga **1618,4** mlrd. so'm (yoki **38,0** %), ishlab chiqarish sanoatiga **1389,1** mlrd. so'm (yoki **32,6** %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga **523,0** mlrd. so'm (yoki **12,3** %), suv ta'minotiga **197,1** mlrd. so'm (yoki **4,6** %), qurilishga **123,1** mlrd. so'm (yoki **2,9** %) va boshqa faoliyat turlariga **413,5** mlrd. so'm (yoki **9,6** %) to'g'ri keladi.

Xorijiy investitsiya va kreditlar (mlrd. so'mda)

		Shu jumladan:		
Jami investitsiya va kreditlar		To`g`ridan- to`g`ri investitsi- yalar	O`zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo`lgan chet el kreditlari	Boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar
Jami	4 264,2	728,7	685,2	2 850,3
Buxoro sh.	880,9	129,5	424,2	327,2
Kogon sh.	143,9	135,3	4,4	4,2
Olot	352,9	61,5	243,1	48,3
Buxoro	152,8	7,1		145,7
Vobkent	112,7	31,4		81,3
G`ijduvon	54,8	0,5		54,3
Kogon	143,6	75,8	5,3	62,5
Qorako'l	50,0	4,5	8,2	37,3
Qorovulbozor	294,9	6,0		288,9
Peshku	23,3	12,3		11,0
Romitan	1918,4	195,3		1723,1
Jondor	97,3	57,0		40,3
Shofirkon	38,7	12,5		26,2

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar shahar va tumanlar kesimida



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tumanlar kesimida tahlil qilinganda, Romitan tumani eng yuqori o'rinni egalladi. Ushbu tumanda **3063,6** mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilgan, o'sish sur'ati **2,2 m.** tashkil qildi. Keyingi o'rinni Buxoro shahri egalladi, o'zlashtirilgan investitsiyalar **1769,0** mlrd. so'm, o'sish sur'ati **143,8** % ni tashkil qildi. Olot tumani **516,7** mlrd. so'mlik asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar bilan uchinchi o'rinni egalladi. Ushbu tumanda o'zlashtirilgan investitsiyalarning o'sish sur'ati **75,7** % ni tashkil qildi.

Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar shahar va tumanlar kesimida

	Ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
Jami	4 065,3	148,3
Buxoro sh	6 275,4	143,1
Kogon sh	2 997,8	2,6 m.
Olot	5 146,1	74,8
Buxoro	2 256,3	104,1
Vobkent	1 770,5	142,1
G'ijduvon	975,7	87,4
Kogon	4 325,1	95,1
Qorako'l	985,4	95,6
Qorovulbozor	24 178,5	7,1 m.
Peshku	1 030,0	89,4
Romitan	21 230,7	2,2 m.
Jondor	1 476,6	125,4
Shofirkon	683,9	106,4

Tumanlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aholi jon boshiga taqsimotida eng yuqori ko'rsatkichni Qorovulbozor tumani egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **24178,5** ming so'mni, o'sish sur'ati **7,1 m.** tashkil qildi. Keyingi o'rinni Romitan tumani egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **21230,7** ming so'mni, o'sish sur'ati **2,2 m.** tashkil qildi. Buxoro shahri uchinchi o'rinni egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **6275,4** ming so'mni, o'sish sur'ati **143,1 %** ni tashkil qildi.

Ob'yektlarni ishga tushirish

2020- yilning yanvar-iyun oylarida umumiy maydoni **935,1** ming kv.m. bo'lgan **4071** xonadonli **3797** ta turar-joy ishga tushirildi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **105,2** foizni tashkil etdi. Shundan umumiy maydoni **728,4** ming kv.m bo'lgan **3128** ta turar joylar qishloq joylariga to'g'ri keladi. (O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati **100,4 %**) Turar-joylarni qurilishiga **858,9** mlrd. so'm miqdorida investitsiyalar o'zlashtirildi.

Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

O.Jabborov

Aloqa telefoni:

Tel: 223-81-99, 0(371)230-83-10